



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(3)
2023





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGİK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№1(3) 2023

Jurnal haqida

Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlan ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.



"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Pedagogical akmeology" international scientific-methodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-methodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Shabon FARMONOVA
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlarini asoslash, uning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash uchun pedagogik tajriba predmeti, maqsadi, vazifalarini aniqlash, natijalarini tahlil qilishga doir fikr bayon etilgan. Ona tili ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlarining asosiy maqsadi ta'lim samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilashdan iborat. Ona tili ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish zarurati ona tilini o'qitish orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlash malakasiga ega shaxsni tarbiyalash vazifasidan kelib chiqadi.

Kalit so'zlar: *ona tili, boshlang'ich sinf, ijodiy ta'lim, ijodiylik, ijodiy faoliyat, loyiha, loyihalashtirish, tafakkur, ta'lim jarayoni, samaradorlik, pedagogik tajriba, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish, davlat ta'lim standarti, o'quvchi.*

В статье раскрывается идея определения предмета, цели, функций педагогического опыта, анализа полученных результатов с целью обоснования практики проектирования творческой деятельности студентов в процессе обучения родному языку, описания ее специфических особенностей. Основной целью проектирования творческой деятельности студентов в процессе обучения родному языку является повышение эффективности и качества образования.

Необходимость проектирования творческой деятельности студентов в области образования на родном языке вытекает из задачи воспитания личности с навыками самостоятельного мышления студентов через обучение родному языку.

Ключевые слова: *родной язык, начальный класс, творческое образование, творчество, творческая деятельность, проект, дизайн, мысль, образовательный процесс, эффект, педагогический опыт, организация, управление, контроль, государственный образовательный стандарт, читатель.*

The article reveals the idea of defining the subject, purpose, functions of pedagogical experience, analyzing the results obtained in order to substantiate the practice of designing creative activity of students in the process of teaching their native language, describing its specific features. The main purpose of designing creative activity of students in the process of teaching their native language is to improve the efficiency and quality of education.

The need to design students' creative activity in the field of education in their native language arises from the task of educating a person with the skills of independent thinking of students through teaching their native language.

Keywords: *native language, primary school, creative education, creativity, creative activity, project, design, thought, educational process, effect, pedagogical experience, organization, management, control, state educational standard, reader.*

Ta'limni, jumladan, boshlang'ich sinf ona tili ta'limida ijodiy ishlarni tashkil etishni hech kim inkor qilmaydi. Aksincha, ta'lim jarayonida ijodiy ishlarni tashkil etish uning samaradorligini oshirish, yoshlarni hayot, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning sifatini yaxshilash mumkinligini o'qituvchilar ham, ilmiy jamoatchilik ham e'tirof etadi. Ammo shunga qaramasdan, fan mutaxassislari, shuningdek, maktab o'qituvchilari orasida ijodiy ta'limni noijodiy ta'limdan farq qilish sohasida tushunmovchiliklar, ularning o'zaro tafovutlarini ajratishda kamchilik, yetishmovchiliklar ko'plab topiladi. Shundan bo'lsa kerak, o'quvchilarga beriladigan mustaqil

ishlarning barchasi ijodiy ish sifatida qabul qilinadi. Haqiqatan ham sinfda tashkil etiladigan o'quv topshiriqlarining barchasini mustaqil ish, mustaqil ishlarning esa barcha ko'rinishi va turlarini ijodiy ish deb qarash mantiqan chalkashlikka olib keladi. Bunday murakkab holatdan chiqib ketishning asosiy yo'llaridan biri "mustaqil ish" va "ijodiy ish" tushunchalarini o'zaro chog'ishtirib o'rganish, ularning har biriga oid alomatlarini alohida-alohida ajratib ko'rsatishdir. Yana bir munozarali muammo ijodiy ishni noijodiy ishdan farqlash masalasidir. Ijodiy va noijodiy topshiriqlarning farqlarini aniq chegaralamasdan turib, ta'limni ijodiy tashkil etish

to'g'risida fikr yuritib bo'lmaydi. Shunday ekan, o'quvchilarning tafakkuri bilan bilish faoliyati xususiyatlarini tizimli tahlil qilishni taqozo qiladi. Bilish faoliyati nuqul tafakkurning ishimi yoki bilish jarayonlarida xotira ham ishtirok etadimi? Bulardan ko'rinadiki, boshlang'ich sinf ona tili ta'limida ijodiy ishlarni tashkil etish o'ta murakkab metodik hodisadir.

Darslarda o'tkaziladigan mustaqil ishlar dars tipiga, dars jarayonining turli bosqichlariga, o'quv materialining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Ona tilidan o'rganiladigan har bir mavzu, har bir orfogramma xarakteriga muvofiq mustaqil ishlar uyushtiriladi. Ona tili darslarida o'tkaziladigan mustaqil ishlarga quyidagi talablar qo'yiladi: a) mustaqil ishlar pedagogik va psixologik tomondan asoslangan bo'lishi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, bilimiga mos bo'lishi, o'quvchilarga tilni o'zlashtirishga qiziqtirishi lozim; b) o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq bolalarning o'quv materialini faol idrok etishini ta'minlashi zarur; d) mustaqil ish hayotiy bo'lishi, o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliy tatbiq etishning vositasi bo'lmog'i kerak.

Boshlang'ich sinflarda tashkil qilinadigan mustaqil ishlar hajmi va murakkabligi jihatdan uch guruhga bo'linadi: tayyorlovchi; yarim mustaqil yoki oraliq; natijasi matnga teng mustaqil ishlar.

1. Tayyorlovchi mustaqil ishlar. Pedagogik-psixologiyadan ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari vazifalarni mustaqil bajarishga ancha qiynaladilar. Ular berilgan topshiriqlarni taqlid qilish yo'li bilanagina bajara oladi. Ilg'or o'qituvchilar birinchi sinfda dastlabki mustaqil ishlarni quyidagicha tashkil etishadi: avvalo, o'qituvchi o'quv qurollariga muomala qilish, o'quv qurollaridan foydalanish, o'qish va yozish paytida partada o'tirish qoidalarini amaliy ravishda ko'rsatib beradi. O'quvchilar o'qituvchiga ergashib, uning qilgan harakatlarini takrorlaydi. Bu ishlar asta-sekin murakkablashtirib boriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tovushni bo'g'inga, bo'g'inni so'zga birlashtiradilar. Gapni so'zga, so'zni bo'g'inga, bo'g'inni tovushlarga ajratadilar. O'quvchilarga tahlil qilishni o'rgatish maqsadida ularning diqqati konkret narsalarga tortiladi. O'qituvchi rasmni o'sa turib, (rasmda uzum, anor, shaftoli, limon, o'rik kabi mevalar ifodalangan) o'quvchilarga bunday ish beradi: rasmni yaxshilab kuzating. Unda nimalar tasvirlangan? Ularning nomini eslang. Shirin va nordon mevalarning nomini bildiradigan so'zlarni guruhlarga ajrating. O'ylang, yana qaysi mevalar shirin va nordon bo'ladi. Bunday topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar chog'ishtirish usulidan foydalanadilar. Topshiriq bajarilgach, tahlil uchun "olma" so'zi ajratildi. Shu so'z bo'g'inlarga bo'linadi. "Olma so'zining ikkinchi bo'g'inidagi "m", "a" tovushlarining artikulyatsiyasini kuzatish

topshirildi (o'quvchilar bu tovushlarni ayta turib, partadosh o'rtoqlarining og'ziga qaraydi). Suhbat paytida o'quvchilar "m" tovushini talaffuz qilganda lablarning yumilishi, "a" tovushini aytganda og'izning ochilishini o'rganib oladilar. Shunga o'xshash ishlarni bajarish natijasida o'quvchilar til dalillarini kuzatish, jamoada ishlay olish malakalarini egallaydi. Bu ishlar o'quvchilarni bundan keyingi yanada murakkabroq vazifalarni bajarishga tayyorlaydi.

2. Yarim mustaqil yoki oraliq mustaqil ishlar. Mustaqil ishlarning bu turi yetaklovchi savollar, darslik, bosma asosli tarqatma materiallar, ko'rsatma qurollardan foydalanish asosida bajariladi. Misollar: O'qituvchi doskaga "paxta" so'zini yozib, o'zakdosh so'zlarni topishni buyuradi. O'quvchilar "paxta", "paxtazor", "paxtachilik", "paxtagul", "paxtali" kabi so'zlarni lug'atdan topib yozadi. Bu ishda yetaklovchilik vazifasini paxta so'zi o'ynaydi.

3-sinfda "Gapda so'zlarning bog'lanishi" mavzusi o'tilganda quyidagicha mustaqil ish o'tkaziladi.

1. Gapni so'zlarga ajrating, har bir so'zning so'rog'ini aniqlang.

Qor yog'di.

2. Nuqtalar o'rniga tegishli so'zni qo'yib, gapni kengaytirib yozing.

... qor yog'di. (oppoq, qizil, ko'm-ko'k)

Oppoq qor yog'di,

3. Gapni bugun, qalin so'zlari yordamida kengaytirib yozing.

Bugun oppoq, qalin qor yog'di.

3. Natijasi matnga teng mustaqil ishlar. Ta'lim ilgarilagan sari o'quvchilar yanada murakkabroq vazifalarni bajara oladilar. Shuni hisobga olib, grammatikadan o'rganiladigan bilimlarga bog'langan holda ijodiy diktant, hikoya, ish qog'ozlari, bayon, insho va boshqa ish turlaridan mustaqil ish sifatida foydalanish mumkin. Bu ishlar hajmining kattaligi, bajarish uchun ko'p vaqtni talab qilishi bilan mustaqil ishning oldingi turlaridan farq qiladi. Bunday mustaqil ishlarning oldingi turlaridan farqlash uchun "natijasi matnga teng mustaqil ishlar" terminini ishlatdik. Shunday qilib, ona tili darslarida o'tkaziladigan mustaqil ishlar tizimi o'quv materialining mazmuni, sinf o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, mustaqil ishni bajarish uchun ketadigan vaqtga ko'ra aniqlanadi.

4. Darslik materiallari ustida mustaqil ishlarni tayin etish yo'llari. Maktab darsliklarining oldiga qat'iy ilmiy-izchillik, milliy istiqloq g'oyasini singdirish kabi qator vazifalar qo'yilmog'i zarur. Stabillashgan, tajribada o'zini oqlay olgan darsliklarga o'quvchilarga har taraflama yetuk bilim bera oladi, o'quvchilarni mustaqil ishlashga odatlantira oladi.

"Ona tili" darsliklari materiallari o'zida

88 grammatik kategoriyalarni, soʻz yasash shakllari va usullari, soʻz oʻzgartirish va gap tuzish yoʻllari, orfoepik va orfografik hamda punktuatsion qoidalarni mujassamlantirgan. Darslikdagi qonun-qoidalar oʻzining abstraktligi, umumiyliги bilan xarakterlanadi. Demak, oʻquvchining umumiy taraqqiy qilishda ona tili alohida ahamiyatga ega boʻlib, uning asosiy vazifalaridan biri bolalarning tafakkurini oʻstirish, ularda kitob ustida ishlash malakalarini takomillashtirishdan iborat.

Maktablarda oʻqituvchilarning ish tajribasini oʻrganish, oʻquvchilarning darslik ustida ishlay olish iqtidorlarini tekshirish shu xulosaga olib keldiki, darslik materiallari oʻqituvchilar tomonidan atroflicha oʻrganilib, murakkabligi jihatdan farqlanmaydi, oʻquvchilarga darslik ustida mustaqil ishlay olish koʻnikmalari singdirilmaydi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari kitob ustida ishlash malakasini hosil qilmasdan yuqori sinfga koʻchiriladi. Bu, bir tomondan, oʻquvchining bundan soʻng oʻz bilimini oshirish ustida qunt bilan ishlashiga toʻsqinlik qilsa, ikkinchi tomondan, oʻqituvchilarni qiynab qoʻyadi. Qisqasi, oʻquvchilar maktabni bitirgach, oʻzlari faoliyat koʻrsatib mustaqil bilim olishga poydevor hosil qilmasdan "hayotga yoʻllanma" oladi.

Kishining oʻz faoliyati evaziga hosil qiladigan shaxsiy sifatleri, bilim olishga boʻlgan ishtiyoqi uning maktab partasida hosil qilgan shaxsiy sifatlarining (bilim olish, tevarak-atrofdagi voqelikka toʻgʻri munosabatda boʻlish, irodalilik, mustaqillik, tashabbuskorlik va shu kabilar) qonuniy davomidir. Kishining oʻz faoliyati-taraqqiyot asosi. Faoliyatdan tashqarida taraqqiyot

boʻlmaydi. Bu qonuniyat yosh avlod uchun alohida ahamiyatga ega. Oʻquvchi maktabda darslik ustida mustaqil ishlashni qanchalik puxta oʻrgansa, maktabni bitirib chiqqandan soʻng oʻz bilimini oshirish uchun shunchalik muvaffaqiyatli ishlay oladi.

Maktab oʻqituvchilaridan baʼzilari koʻpincha grammatik-orfografik qoidalarni ikki-uch jumla bilan aytib beradi yoki shu qoidalarni bir oʻquvchiga oʻqitish bilan chegaralanadi. Darslarda oʻquvchilar dalillardan xulosalar chiqarishga oʻrgatilmaydi, darslik mashqlarini mustaqil, ongli bajarishga bolalar tayyorlanmaydi. Natijada oʻquvchilar darslikdagi qoidalarni quruq yodlab oladilar.

Grammatik qonun-qoida ustida oʻtkaziladigan mashqlar jamoaviy xarakterga ega boʻlib, oʻqituvchi faqat doskaga chiqarilgan oʻquvchi bilan ishlaydi. Sinf jamoasi esa oʻrtogʻining doskadagi ishidan nusxa oladi. Koʻpchilik maktablarda taʼlimning asosiy nuqsonlaridan biri oʻquvchilarga maʼlum chegarada bilimlar eʼlon qilinsa-da, ammo ularning umumiy aqliy taraqqiyotiga yetarli eʼtibor bermaslikda, bolalarga mustaqil ishlash malakalarini singdirmaslikdadir.

Darslik materiallari ustida oʻquvchilarni mustaqil ishlashga oʻrgatish ikki bosqichda amalga oshiriladi: oʻquvchilarda tashkiliy-texnik malakalarni hosil qilish; oʻquvchilarga darslikdagi grammatik qoidalar va mashqlar ustida ishlash yoʻllarini oʻrgatish. Oʻquvchilarda darslik ustida ishlashning tashkiliy-texnik malakalari hosil qilinishi bilan birga, ularga darslik materiallari ustida ishlash yoʻllari ham oʻrgatiladi.

Adabiyotlar

1. Розиков О.Р. Ўзбек тилидан дарс типлари.—Тошкент: Ўқитувчи, 1976. —123 б.
2. Саидахмедов Н., Очилов А. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойиҳаси. — Тошкент: 1999. —55 б.
3. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишининг назарий асослари. Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. —Т.: 2003. —280 б.
4. Гулямов А.К. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка. Автореф. дисс. ... доктр. пед. наук. —Т.: 1991. —37 с.
5. Калитина А.А. Творческие упражнения учащихся в начальной школе. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. —М.: 1951. —17 с.
6. Каримова В.М., Суннатова Р.И., Тожибоева Р.Н. Мустақил фикрлаш. —Т.: Шарк, 2000. —110 б.
7. Маткин В.В. Междпредметные проблемные познавательные задачи как средство формирования интереса к творческой деятельности школьников. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. —М.: 1977. —28 с.
8. Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. —М.: Просвещение, 1977. —240 с.
9. Махмудов М.Х. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари. Пед. фанл. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. —Т.: 2004. —42 б.
10. Муҳиддинов А.Ф. Ўқув жараёнида нутқ фаолияти. —Т.: Ўқитувчи, 1995. —78 б.
11. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. —Т.: Ўқитувчи, 1993. —30 б.
12. Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика. М.: Педагогика, 1976. —280 с.
13. Ғаниев Т.Т. Она тилидан машқ бажариш жараёнида ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш. Пед. фанл. номз. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. —Т.: 1991. —194 б.
14. Ҳамроев А.Р. Бошланғич синфларда она тили таълимини ижодий ташкил этиш. Пед. фанл. номз. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. —Т.: 2005. —151 б.

Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
 "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA"
 xalqaro ilmiy-metodik jurnali
 barcha ta'lim muassasalarini
 hamkorlikka chorlaydi.

"PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnalida o'zbek, rus, ingliz tillarida
 maqolalar chop etiladi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy
 Buxoro davlat universiteti

Tahririyat rekvizitlari:

«Садриддин Салим Бухорий» МЧЖ
 Манзил: Бухоро, Муҳаммад Иқбола кўчаси, 11
 Р/с 20208000104858465002
 Бухоро шаҳри Ҳамкорбанк МФО 00966
 ИНН 301637939 ОКНХ 87100

<p>PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA</p> <p>Xalqaro ilmiy-metodik jurnal</p> <p>2023-yil 1-son (3)</p> <p>2022-yil avgust oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>Нашр индекси: 1397</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, kasb-hunar maktablari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas'ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 30.01.2023 Bosmaxonaga topshirish vaqti 06.02.2023 Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 24,2 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 82 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.</p>
--	--	---